



SOFOKLNING “ SHOH EDIP “ TRAGEDIYASIDA INSON TAQDIRI MASALASI

Abdurahimova Marjona

Farg'ona davlat universiteti 1- kurs talabasi

Annotatsiya .Ushbu maqolada adiblar musobaqasida o‘z ustozini mag‘lub etgan dramaturg Sofoklning qadim yunon mifologiyasi asosida yaratilgan “ Shoh Edip ” tragediyasida inson taqdiri masalasi tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar : Antik adabiyot , tragediya, taqdir, bashorat motivi, qismat, konflikt

Abstract. This article analyzes the issue of human destiny in the tragedy “Oedipus the King” created by the playwright Sophocles, who defeated his teacher Aeschylus in a literary competition. The work, based on ancient Greek mythology, examines the problem of fate and its artistic interpretation.

Keywords: Ancient literature, tragedy, fate, prophecy motif, destiny, conflict.

Drama adabiyotning alohida turi sifatida antik davrda shakllandi. Dramaning muhim jihati hikoya yoki bayon qilish emas – harakat (yunoncha drama so‘zi “harakat” ma’nosini bildiradi). Dramada ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro suhbatlar, dialoglar, munosabatlar, ularning xatti-harakatlari, qarama-qarshiliklar va ularning yechimi tasvirlanadi. Yunon dramaturgiyasining barcha turlari – tragediya, komediya, satirlar dramasi dehqonlarning homiylari bo‘lgan ma’budalar Demetra va Kora sharafiga kuylagan qo‘shiqlar hamda may, shodlik va hosildorlik ma’budi, taka qiyofasidagi Dionisga bag‘ishlangan marosimlar asosida maydonga kelgan.[1.59] Drama turlarini ichida eng keng tarqalgan janr bu tragediya hisoblanadi. Antik davrda o‘z davrining mashhur shoir ,yozuvchilar orasidan tragediya sohasi bilan qalam tebratib, ijtimoiy masalalarni sahnaga olib chiqqan dramaturglar ko‘p. Ularning orasidan “ Tragediyaning otasi “ deb tan olingan Esxil va uning shogirdi Sofoklning xizmatlari beqiyosdir. Xususan,Sofokl Esxil boshlagan ishni davom ettirib, tragediyani tantanali lirik qo‘shiqdan chinakam dramaga aylantirishda katta hissasini qo‘shdi.Aristotelning “Poetika”da xabar berishicha, buyuk dramaturg sahna san’ati nazariyasi bo‘yicha ham ko‘p yangiliklar kiritgan: xor tarkibini o‘zgartirgan, musiqiy parchalar joriy etgan, teatr dekoratsiyasini qo‘llagan. Gyotening aytishicha, “Sahna san’atini Sofoklchalik hech kim bilmagan”. Uning “Shoh Edip”, “Antigona”, “Edip Kolonda” tragediyalarining syujeti afsonalarning Fiva turkumidan olingan. “Elektra”, “Filoklet”, “Ayaks” asarlari Troya afsonalari mavzusida yozilgan bo‘lsa, “Traxinalik ayollar” Gerakl haqidagi rivoyatlar asosida yozilgan. Shuningdek, shoirning 123 ta pyesasidan yettitasigina saqlanib qolgan. Bu yunonlar uchun juda muvafaqqiyat olib kelgan .Uning 7 ta saqlanib qolgan asari ham dunyo olimlari tomonidan o‘rganilib chiqilgan va qariyb 2400 yil o‘tgan bo‘lsa ham haligacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Ayniqsa , Sofoklning eng mashhur asari “ Shoh Edip” sanaladi.Asar yunon mifologiyasidan oziqlangan bo‘lib, inson



taqdiri , qismat va bashorat motivini o‘z ichiga oladi. Asarda Edip tug‘ilishidan oldin unga dahshatli bashorat beriladi. Bashoratga ko‘ra, u ulg‘aygach o‘z otasini o‘ldirib, o‘z onasiga uylanadi. Shu sababli ota-onasi uni o‘ldirishga harakat qilishadi, ammo taqdir taqozosi bilan Edip tirik qoladi va boshqa yurtda tarbiyalanadi. Edip ham bu bashoratni eshitgach, uni amalga oshirmaslik uchun o‘zini ota-onasi deb bilgan kishilardan uzoqlashadi. Lekin aynan shu harakati orqali u o‘z haqiqiy otasini bilmagan holda o‘ldiradi va onasiga uylanadi. Bu voqealar inson taqdirining oldindan belgilanganligini va uni o‘zgartirib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Asarda ma‘budlar inson taqdirini oldindan belgilab qo‘yishi va inson bunga qarshi ojiz ekanligi masalasini tahlil qilsak, masalan: Edip taqdirini o‘zgartirish uchun qancha harakat qilmasin, Apollonning bashorati amalga oshadi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi? Ma‘budlar inson taqdirini belgilashda adolatsizlikka yo‘l qo‘yishi mumkinmi? Agar adolatsizlik qilishmagan bo‘lsa, nega endi Edipga shunday taqdirni nasib qilishdi? Qadimgi yunon qarashlariga ko‘ra , ma‘budlar insonlarni ataylab jazolamaydi, balki taqdir qonunlari ishlaydi. Inson esa bu qonunlarni o‘zgartira olmaydi. Avvalo, ba‘zan inson butun haqiqatni bilmagani uchun voqealarni adolatsizlik deb o‘ylaydi. Edip ham boshida o‘zini baxtsiz deb hisoblaydi, lekin haqiqatni bilgach hammasi sabab-oqibat ekanini tushunadi. Shuningdek, Yunon adabiyotida insonning haddan tashqari g‘ururi tufayli jazolanadi. Masalan, “ Shoh Edip “ asarida ham Edipning boshiga shu kulfatlar tushishiga o‘z ota - onasi ham sababchi bo‘lishadi. Edipning o‘zi ham Tiresiy , keksa donishmandni mazax qilganligi , xalq boshiga tushgan ofatlarga sabab bo‘lgan Layning qotili Fivada ekanligi va u jazolanmaguncha bu kulfatlar tugamasligini bilgach, qotilni qanday qilib bo‘lsa-da topish va jazolash farmonini berishi yo‘lida qilgan o‘jarliklari ham o‘z taqdirini tezlashtirishga sabab bo‘ldi . Yunon mifologiyasida mabudlarga itoat qilish, ularning buyrug‘iga bo‘ysunish va ular beradigan jazolardan qo‘rqish kabi hodisalar mavjud. Ushbu tragediyada ham Edip har bir ishda ma‘budlarga yuzlanib, ulardan to‘g‘ri yo‘l va maslahat so‘raydi. Tragediyada Edipning qay darajada vijdonli ekanligini ham ko‘ramiz , ya‘ni u Fivada hukmron bo‘lganidan so‘ng xalq nolasini eshitadi, yurtdagi ofatlarni to‘xtatib qolishga harakat qiladi. U haqiqatni bilgach vijdon azobida qiynaladi va o‘ziga o‘zi hukm chiqaradi: bu dunyo ne‘matlarini ko‘rish, xudolar yaratgan gozallikdan bahramand bo‘lishga, farzandlari va xalqining ko‘ziga qarashga loyiq emasligini aytib, ko‘zlarini Iokastaning to‘g‘nog‘ ichi bilan sitib tashlaydi. Bu jirkanch voqeaning falokati xalqiga va yaqinlariga zarar yetkazmasligi uchun og‘ir ahvolda bo‘lsa ham shahardan bosh olib chiqib ketadi . Bu voqea qanchalik fojiali yakunlanmasin , Edipda insoniy mas‘uliyat va axloqiy fazilat mavjudligini namoyon qiladi . Shuningdek, asar oxirida ham o‘zi taqdirga ishonganini ta‘kidlab o‘tadi:

Э д и п : Худога номимни яна ёд этмох...

К р е о и т : Эндн сен илохга инонсанг керак?..

Э д и п : Ишончу илннжим сенда, Креонт Нима бўлса бўлар, энди бу ёгини Тахдирнинг ўзига ҳавола ҳилдим[2.70]

Nazar Eshonqul “ Shoh Edip” asariga shunday munosabat bildiradi: “ Bu fojia insoniyatga kimligini, uning yelkasida qanday ma’suliyat borligini, nima mumkin-u, nima mumkin emasligini bot-bot eslatib turadi: go‘yo asardagi fojia inson boshi kelib uriladigan devoru, mazkur devorning mavjudligini bani basharga ibrat qilish uchun Sofokl go‘yo insoniyatning badiiy tafakkuri tarixiga abadiy osib qo‘ygandek. Odam hamisha o‘zini fojiadan olib qochadi. U fojiadan uzoqroq yurishni istaydi, fojiadan chetlab o‘tadi. Biroq fojialar bo‘lmasa edi, inson saodatning farqiga bormasdi, qadriga yetmasdi.[3.3] Darhaqiqat, ma’budlar insonga ataylab yoki qastdan fojiali taqdirni nasib etmaydi. Avvalo, takabburlik va g‘urur insonni shu yo‘lga yetaklaydi. Lekin har doim ham emas, bu taqdir insonlarga sabr qilishni , shukr qilishni o‘rgatadi . Agarda hayot insonlarga jazo yoki sinov bermasa, hech qachon shukr qilishmaydi, baxtning qadriga yetishmaydi. Shu sababli ham ma’budlar insonlarga ham sinov yoki jazo yuboradi. Bugungi kunda ham “Shoh Edip” tragediyasi inson hayotidagi qismat, mas’uliyat va tanlovlar mavzusini o‘zining aktualligini yo‘qotmay yoritadi. Ta’lim, ish, ijtimoiy muhit yoki shaxsiy qarorlar – har bir inson o‘z taqdirini shakllantiradi, lekin xatolar, kibr va noto‘g‘ri qarorlar fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkin. Edipning voqeasi shuni eslatadiki, haqiqatni bilish va mas’uliyatni anglash insonni kuchaytiradi, lekin shu bilan birga erkin iroda va taqdir o‘rtasidagi ziddiyatni ham unutmamaslik kerak. Hozirgi zamonda, bu asar bizga shaxsiy qarorlarimiz, halollik va o‘z xatolarimizni tan olishning ahamiyatini ko‘rsatadi .Taqdir oldindan belgilangan bolsa ham, inson oz qarorlari uchun javobgardir. U qanchalik qismatidan qochishga urinmasin, oxir-oqibat o‘z taqdiriga duch keladi. Eng muhimi esa uni qanday qabul qilish va qanday saboq chiqarishdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon adabiyoti . Ulug‘bek Hamdam, Abdug‘ofir Qosimov .–Toshkent:” Akademik nashr “ 2024 - 59-bet
2. Sofokl “Shoh Edip” tragediya. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti Toshkent-1979 – 70 -bet
3. Antik adabiyot Qayumov, O.–Toshkent: O‘qituvchi, 1975.
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/dunyo-adabiyoti-turkumi-sofokl.htm>